

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

## CHENGYU FRAZEOLGIK BIRLIKLARI XUSUSIYATLARI XITOIY TILI DUNYO TASVIRI TARKIBIY QISMI SIFATIDA ("UCH QIROLLIK" ROMANI MISOLIDA)

**Bobonorov Abdurauf Abdumuminovich**

SamDChTI qoshidagi Konfutsiy instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xitoy tilining ajralmas qismi hisoblanadigan xitoy frazeologik birliklari haqida so'z boradi, asosiy urg'u chengyu frazeologik birliklariga qaratiladi. Chengyularning xitoy tili, xitoy madaniyati va jamiyatida tutgan o'rni hamda mohiyati ko'rib chiqiladi. Maqoladagi asosiy mazmun Luo Guanchjuning "Uch qirollik" romani asosida yoritilgan. Romandagi chengyularning kelib chiqish tarixi, ularning xitoy jamiyatidagi tutgan o'rni va mohiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Chengyu, "Uch qirollik" romani, frazeologizm, dunyo manzarasi, allegoriya, maqol, birikmalar, metafora, lingvistik manzara.

**Kirish.** Hozirgi vaqtda ko'plab filologiya yo'nalishlarida (xususan, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya) "dunyo tasviri" tushunchasini tahlil qilishga katta e'tibor berilmoqda. Globallashuv jarayonlari davom etayotganligi munosabati bilan dunyoning milliy "tasvirlar"ini o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Shunga ko'ra, milliy madaniyatlarning xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan tilga muhim o'rin beriladi, chunki u muayyan millatning dunyoqarashini namoyon etishda ham, shakllantirishda ham katta rol o'ynaydi. Dunyoda nechta til bo'lsa, shuncha milliy til dunyo tasvirlari mavjud deb aytishimiz mumkin. Har bit tegishli millatning ko'p asrlik tarixini, rivojlanishini, o'ziga xos universal jihatlarini aks ettiradi.

Ana endi biz maqolaning asosiy nuqtasiga yaqinlashayapmiz - frazeologik birliklar. Frazeologik birliklar dunyo tasvirini lingvistik jihatdan o'rganishda ulkan rol o'ynaydi. Ular ma'lum bir millatning madaniy etalonlari, stereotiplari, mifologema va unga xos bo'lgan madaniy birliklarni o'zida jalb etadi. Xitoy tili frazeologizmlari bu xitoy milliyliigi yaqqol aks etgan o'tmish merosi hisoblanadi.

Eng yirik xitoy tilshunoslaridan biri Lyu Yukai (刘玉凯) frazeologizmlarga juda obrazli va ayni paytda juda lo'nda ta'rif beradi: "Frazeologik birliklar tilning durdonalaridir, xitoy frazeologik birliklari chengyularda esa xitoy tilining barcha boyliklari jamlangan. Tildan foydalangan holda, odamlar uni rivojlantiradi, boyitadi, o'zgartiradi. Biroz vaqt o'tgach, qisqa chengyular "o'matiladi" va ular butun xalq madaniyatining ulug'vorligini aks ettiruvchi umumiy til belgilariga aylanadi.

Ma Guofanning (马国凡) tasnifiga ko'ra, xitoy tilida frazeologik birliklarning besh turi mavjud:

- 1) 成语 (chengyu) — Chengyu frazeologizmlari;
- 2) 颜语 (yanyu) — maqollar;
- 3) 歇后语 (siehouyu) — allegoriyalar;
- 4) 惯用语 (gaunyongyu) — ommaviy frazeologik birikmalar;
- 5) 俗语 (suyu) — kundalik iboralar.

Bu tizimda chengyu frazeologik birliklari alohida o'rin tutadi.

Avvalo, bu eng keng tarqalgan tur ekanligini ta'kidlashimiz lozim. Ma Guofan ta'kidlaydi: "...ko'pincha u to'rt so'zdan iborat bo'lib, venyan me'yorlari bo'yicha qurilgan, semantik jihatdan birlashtirilgan, umumlashirilgan majoziy ma'noga ega, ekspressiv xususiyatga ega va gapning a'zosi".

Masalan: 画饼充饥 (Huá bǐn chōng jī) chengyuyi tarjimasi: "ochlikni chizilgan non bilan to'ydirish" - degani. Ammo uning ko'chma va asosiy ma'nosi bu "o'zini orzu hayollar

bilan aldash" degani. Bunda biz chengyularning o'ziga xos tomonini kuzatishimiz mumkin, ya'ni hozirgi zamonaviy xitoy tili normalariga rioya qilinmaganligini kuzatishimiz mumkin.

Chengyularning ko'pchiligining asosiy manbaalari bu klassik Xitoy adabiyoti hisoblanadi: kanonlar, falsafiy risolalar, tarixiy yilnomalar va badiiy adabiyotlar. Shuni alohida ta'kidlash lozim, barcha xitoy frazeologik birliklarining muhim qismi to'rtta klassik romandan - "to'rtta buyuk asar"(四大名著)dan olingan. Bular "Uch qirollik" (XIV asrga yaqin) (三国演义) romani, muallifi – Luo Guanchjong (罗贯中 taxminan 1330–1400), "Daryo o'zanlari" (XV asr) (水浒传) - yozuvchi Shi Nai'an (施耐庵), "G'arbga sayohat" (XVI asr) (西游记) - muallif Vu Chengen (吴承恩 (1500-1582)), "Qizil go'shankadagi tush" (红楼梦)(XVIII asr) - Sao Chjan (曹霏) tomonidan yozilgan.

**"Uch qirollik" romanidagi frazeologik birliklardan foydalangan holda dunyoning lingvistik tasviri.** Nega aynan "Uch qirollik" romani? Avvalambor, roman ikki xil an'ana – xalq adabiyoti va tarixiy prozaning o'ziga xos uyg'unligidir. Luo Guanchjong "Uch qirollik" asarida tasvirlagan voqealar 100 yildan ko'proq vaqtni - qo'zg'olon boshlanganidan to mamlakatning yangi birlashuvigacha bo'lgan davrni (II-III-asr oxiri) qamrab oladi, shuning uchun bu roman keng miqyosdagi tarixiy voqealarni qamrab olganligi, syujet rivojlanishida tarixiy xronikalligi bilan ajralib turadi. Romanda 400 dan ortiq qahramon tasvirlangan.

Bundan tashqari, "Uch qirollik" asarining mazmuni har qanday shahar yoki chekka qishloqdagi savodli va savodsiz har bir xitoyga ma'lum, shuning uchun bu tom ma'noda xalq asari hisoblanadi. Bu asardagi chengyu frazeologik birliklar kundalik hayotda qo'llanilib, nutqqa vazn, ma'no, metafora, boylik va yorqinlik baxsh etadi. Ularning bilish barcha xitoy tili kurslarining majburiy dasturiga kiritilgan. Xitoyda romanning yosh kategoriyasi bo'yicha moslashtirilgan versiyasini o'rganish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxatiga kiritilgan.

1. 桃园结义 (Táoyuánjiéyì)-so'zma so'z tarjimasida shaftoli bog'ida qasamyod qilish. Ma'nosi esa: Umr so'ngigacha og'a ini tutinish.

"Uch qirollik" romanining syujetiga ko'ra, Xan davrining oxirida Liu Bei, Guan Yu va Chjan Fey bir-biriga xuddi shunday shaftoli bog'ida qasamyod qilib, qasam ichib aka-uka bo'lishadi. Ular ko'plab ijobiy fazilatlariga ega bo'lgan romanning markaziy obrazlardir. Shaftoli bog'i an'anaviy xitoy madaniyatida umrboqiylik ramzi hisoblanadi.

2. 三顾茅庐 (Sāngùmáolú)-so'zma so'z tarjimasida kulbaga uch marta tashrif buyurish. Ma'nosi esa: Donishmand odamdan astoydil yordam so'rash, uni astoydil xizmatga taklif qilish; unga iltifot ko'rsatish, astoydil ko'ndirish.

Romanda Sao Sao va Shu davlatining asoschisi Liu Bei qo'shinlari o'rtasidagi qarama-qarshilikning dastlabki davrida Liu Bei zaif holatda bo'lganligi va shuning uchun unga maslahat va yordam beradigan odamga muhtojligi tasvirlangan. Qo'mondonga qishloqda uzoq vaqtdan beri yashaydigan buyuk strateg va donishmand Chjuge Liang tavsiya qilinadi. Chjuge Liangdan mamlakatni birlashtirish va hokimiyatni qo'lga kiritishda yordam so'rash uchun Lyu Bei uch marta donishmandning uyiga uzoq safarga chiqadi. Oxir-oqibat, u Lyu Beining samimiyligidan ta'sirlanib, mehmonni qabul qilishga rozi bo'ladi.

3. 如鱼得水 (Rúyúdéshuǐ)-so'zma so'z tarjimasida suvga yetishgan baliq kabi. Ma'nosi esa: vaziyatni o'z nazoratiga olmoq, o'zini erkin his etmoq degani.

Chjuge Liang boshchiligida Lyu Beining kuchi sezilarli darajada oshdi va ular o'rtasidagi munosabatlar yanada ishonchli bo'ldi. Bir kuni Lyu Bei o'z inilari Guan Yu va Chjan Feyga: "Chjuge Liangni topib, men o'zimni suvga tushgan baliqdek his etayapman", -dedi.

Keyinchalik bu frazeologik birlik yaqin do'stlar yoki er va xotin o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni tasvirlash uchun ishlatila boshlandi. Bu ibora, shuningdek, inson o'zini topadigan sharoitlarning o'sish va rivojlanish uchun qulay ekanligini ko'rsatadi.

4. 乐不思蜀 (Lèbùsīshǔ) -so'zma so'z tarjimasida xursandchilikka berilib, Shuni unutish. Ma'nosi esa: Tug'ilib o'sgan yurtini, uyini unutish.

"Uch qirollik" romanida Shu sulolasi hukmdori o'zga yurtda shu qadar qizg'in aysh-ishratga berilib ketgani sabab, Shu qirolligidagi o'z vazifalarini butunlay unutganligi haqida hikoya qiladi.

5. 初出茅庐 (Chūchūmáolú) -so'zma so'z tarjimasida birinchi marotaba kulbadan chiqmoq degani. Ma'nosi esa: katta hayot yo'lini endigina boshlagan; tajribasiz havaskor, hayotiy ko'nikmaga ega bo'lmagan degani.

Xan imperiyasining bosh vaziri Sao Sao raqibi Liu Bei qo'shinlariga hujum qila boshladi va Liu Bei yordam so'rab Chjuge Liangga murojaat qiladi. U Lyu Beining inilari uning buyrug'iga quloq solmasligidan qo'rqib, Lyu Beining muhri va qilichini so'raydi(uning nomidan buyruq berish uchun). Shundan so'ng, dono maslahatchi Guan Yu va Chjan Feyga, hatto Lyu Beining o'ziga ham ko'rsatmalar berib, qo'shinlarni harakatlantirishni boshladi. Guan Yu bunga chiday olmadi va Chjuge Lyanga savol berdi: dushmanga hujum qilish uchun biz borsak, unda sen nima qilasan? Chjuge Liang esa ularni kutish uchun shaharda qolishini aytadi. Bu javobdan Chjan Fey g'azablanib: "Sen bizga jangga kirishni va o'lgunimizcha jang qilishni buyurayapsan, o'zing esa shaharda o'tirib, dam olasanmi?"-deydi. "Menda muhr va hukmdor qilichi bor. Mening buyrug'imga bo'ysunmaganlarni qatl etaman!" - bu harbiy maslahatchining javobi edi. Shundan so'ng, Sao Saoning qo'shini haqiqatda mag'lubiyatga uchradi, Chjuge Liang o'shanda real tajribaga ega bo'lmay birinchi marta qo'shinlarni boshqardi va darhol g'alaba qozondi. Ya'ni tom ma'noda Chjuge Liang umrida birinchi marotaba kulbasidan chiqdi va muvaffaqiyatga erishdi.

6. 宝刀不老 (Bǎodāobùlǎo) -so'zma so'z tarjimasida yaxshi qilich eskirmaydi. Ma'nosi esa: O'zining avvalgi mahoratini saqlab qolgan qari inson degani. Romanda yoshi ulug' qo'mondon Huang Chjong qariganligiga qaramasadan, baquvvat va navqiron raqib qo'mondonlarini mag'lubiyatga uchratadi.

7. 七擒七纵 (Qī qín qī zòng) -so'zma so'z tarjimasida yettmi marta asir olib yeti marta qo'yib yuborish. Ma'nosi esa: raqibga psixologik bosim o'tkazib, uni o'z ixtiyori bilan bo'ysunishga undashni anglatadi.

Romanda dono Chjuge Liang bo'ysunmas man qabilalari sardorini yetti marotaba asir oladi va yetti marotaba ozod qiladi. Boshida jon-jahti bilan qarshilik ko'rsatgan man qabilasi sardori Meng Huo esa so'ngi marota asirlikdan ozod etilganidan so'ng Chjuge Liangning himmatidan ta'sirlanib o'z ixtiyori bilan uning tomoniga o'tadi va boshqa man qabilalarini ham taslim bo'lsihga chorlaydi.

8. 七步成诗 (Qī bù chéng shī) -so'zma so'z tarjimasida yetti qadam she'rga aylanadi degani. Ma'nosi esa: Insonning aql zakovati va donoligiga ishora qiladi.

Romanda Sao Saoning katta o'g'li imperator Sao Pi o'z ukasi Sao Chji taxtga ko'z olaytirganlikda ayblab saroyga chaqiradi. O'lim xavfi ostida unga yetti qadam tashlab she'r to'qishni buyuradi. Sao Chji esa zukkoligidan foydalanib loviya poyasi haqida she'r yozadi. U sh'erda loviyalar bir biriga bitta ildizdan chiqqaniligiga ishora qilib, nega bir birini o'ldirayotganligini namoyon etishadi. Bundan ta'sirlanga Sao Pi esa ukasini avf etadi.

**Xulosa.** Xitoy tilining frazeologizmlari - chengyu - boshqa milliy tillardagi frazeologik birliklar kabi, atrof-muhitdagi olam haqidagi obrazli fikrlar asosida shakllangan. Chengyuning ma'lum bir to'plamini bilish bizni Xitoy mentaliteti, axloqi, urf-odatlarini, Xitoy dunyo lingvistik manzarasini, ya'ni butun madaniyatini butun xilma-xilligini anglashga yaqinlashtiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Е.В. Звягинцева. Особенности фразеологизмов чэньюй в китайском языке как компонента картины мира 2021-1-701
2. 三国演义 Троецарствие. Роман в двух томах, 1997

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

3. Корнилов О.А. Языковые картины мира как отражения национальных менталитетов: дис. ... д-ра культур. наук. Москва, 2000, 460 с.
4. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва, Школа «Языки русской культуры», 1996, 288 с.
5. Ли Юйкай (李玉凯). Культура чэньюй: серия книг об изящном и простонародном в культуре (雅俗文化书系: 成语文化). Пекин, Чжунго цзинци чубань, 2013, 212 с.
6. Ма Гофань (马国凡). Чэньюй (成语). Хух-хото, Нэймэнгу жэньминь чубаньшэ, 1978, 344 с.
7. Войцехович И.В. Практическая фразеология современного китайского языка. Москва, Восток-запад, 2007, 509 с.
8. Дай Гулун. Старший брат, среднего брата побили, только третий брат идет поперек! «Арсенал» обернул поражение в победу на Лиге Европы (大哥二哥在挨揍, 只有三弟横着走! 欧联阿森纳 4-1 逆转大胜). Восточный спорт: интернет-портал. URL:
9. <https://sports.eastday.com/a/201106072256022000000.html> (дата обращения 06.11.2020).
10. Тань Аошуан. Китайская картина мира. Язык, культура, ментальность.
11. Москва, Языки славянской культуры, 2004, 240 с.
12. Ли Цзи. «Ping An Insurance» вошла в список 10 самых влиятельных китайских корпораций в деловом журнале Fortune (中国平安荣膺《财富》“最受赞赏的中国公司”10强). China News Service: информационное агентство. URL: <http://www.chinanews.com/business/2020/11-06/9331889.shtml> (дата обращения 07.11.2020).
13. Хэ Цзюньяо. Приемлемо ли применять тактику «семь раз брать в плен и семь раз отпускать» по отношению к уличным хулиганам в Гонконге?
14. Большая энциклопедия чэньюй (成语大全). URL: <https://chengyu.911cha.com/MWwzdQ==.html> (дата обращения 15.10.2020).
15. Словарь китайского языка (汉典). URL: <https://www.zdic.net/hans/%E7%A9%BA%E5%9F%8E%E8%AE%A1> (дата обращения 16.10.2020).
- 16.